

O‘rgimchaklar haqida umumiy tushuncha va ularning hilma xilligi

Nabiyeva Dilnozaxon Ahadjon qizi
Ergasheva Shahlo O‘lmasbek qizi

Andijon Davlat Pedagogika insitituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti bialogiya
yo`nalishi 1-bosqich 103-guruh talabasi

Annotasiya: O‘rgimchaklar —bu o‘rgimchaksimonlar oilasiga mansub Haqiqiy quruqlikda yashovchi bo‘g‘imoyoqlilar, Og‘iz organi 2 juft: Og‘iz organlarining birinchi jufti ustki jag‘lar hisoblanadi. Ustki jag‘larning birinchi bo‘g‘imi harakatchan tirnoqsimon o‘simtadan iborat bo‘lib, o‘ljasi tanasini teshish uchun xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘rgimchak, kanalar , biy , qoraqurt, butli o‘rgimchak, solpugalar , chayan.

O‘rgimchaklar —bu o‘rgimchaksimonlar oilasiga mansub Haqiqiy quruqlikda yashovchi bo‘g‘imoyoqlilar, Og‘iz organi 2 juft: Og‘iz organlarining birinchi jufti ustki jag‘lar hisoblanadi. Ustki jag‘larning birinchi bo‘g‘imi harakatchan tirnoqsimon o‘simtadan iborat bo‘lib, o‘ljasi tanasini teshish uchun xizmat qiladi. Jag‘larning asosida zahar bezlari joylashgan. Jag‘lar sanchilganida zahar tirnoqlar ichidagi naycha orqali o‘ljasi tanasiga tushadi va uni o‘ldiradi. O‘rgimchaklarning ikkinchi juft og‘iz organlari oyoq paypaslagichlar deb ataladi. Ular mayda sezgir tukchalar bilan qoplangan bo‘lib, tuyg‘u organi hisoblanadi. Paypaslagichlarning asosiy bo‘g‘imlari pastki jag‘lar vazifasini bajaradi. Butli o‘rgimchakning oyoq paypaslagichlari yurish oyoqlariga nisbatan birmuncha kalta. Boshko‘krakda uzun va ingichka 4 juft yurish oyoqlari ham joylashgan. Qorin bo‘limining hamma bo‘g‘imlari qo‘shilib ketgan. Qorning orqa tomonida butsimon oqish dog‘i bo‘ladi. Shuning uchun unga butli o‘rgimchak nomi berilgan. Qorin bo‘limining keyingi uchida uch juft o‘rgimchak so‘gallari (bezar) bo‘lib, ularga o‘rgimchak bezlarining yo‘llari ochiladi. . o‘pka orqali nafas oladi. ayrim jinsli(urg‘ochi va erkakka bo‘linuvchi) organizm. o‘rgimchaksimonlar turkumi -- Uzunligi 0,7 sm dan 11 sm gacha bo‘ladi. Ko‘pchilik o‘rgimchaklar tanasi qisqa poyacha orqali tutashgan yaxlit boshko‘ krak va qorin bolimidan iborat; faqat bo‘g‘imqorinli o‘rgimchaklar tanasi bo‘g‘imlarga bo‘lingan. Xelitserasiga zahar bezlari yo‘li ochiladi. Qorin bo‘limi keyingi qismida 1—4 juft to‘r bezlari joylashgan. 27000 dan ortiq turi mavjud, jumladan O‘zbekistonda bir necha yuz turi



bor. 3 kenja turkumga ya'ni: bo'g'imqorinlilar, qushxo'r o'rgimchaklar va o'pkali o'rgimchaklarga bo'linadi. Bo'g'imqorinlilar tuban tuzilgan 10 ga yaqin tropik o'rgimchaklarni o'z ichiga oladi. Qushxo'r o'rgimchaklar, asosan, tropikada tarqalgan, 1500 ga yaqin yirik (10 sm gacha) turlardan iborat. Ko'pchilik o'rgimchaklar murakkab to'r to'qib, o'ljasini to'r yordamida tutadi. Faol hayot kechiradigan turlari to'r to'qimaydi, inda yashaydi. Yirtqich oziqlanadi, ayrim turlari uchun kannibalizm xos. O'rgimchaklar zararkunanda va parazit hasharotlar va boshqalar umurtqasizlar bilan oziqlanishi tufayli foydali hisoblanadi. Qoraqurt va biylar zahri o'rgimchak bo'lib, odam uchun xavfli.

O'rgimchaksimonlar — xelitseralilar kenja tipiga mansub bo'g'imoyoqlilar sinfi. Uz. 0,1 mm dan 17 sm gacha. Og'iz organi so'ruvchi. Ko'zlari oddiy. Boshko'kragi ingichka poyacha orqali qorin bilan tutashgan yoki unga qo'shib ketgan. Qorinoyoqlari reduksiyaga uchragan yoki shaklan o'zgarib taroqsimon o'simta, varaqsimon o'pka yoki to'r bezlarini hosil qiladi. O'pka yoki traxeyalar orqali nafas oladi. Ayirish organlari — malpigi naychalari va koksal bezlar. Ko'pchilik O'.da zahar bezlari bor. Ayrim jinsli, tuxum qo'yadi, ayrim turlari (chayonlar) tirik tug'adi. 60000 ga yaqin turi bor; kanalar, chayonlar, telefonlar, frinlar, tartaridlar, palpigradlar, fitsinuleylar, soxta chayonlar, solpugalar, pichano'rarlar, o'rgimchaklar turkumlariga bo'linadi. O'. keng tarqalgan, ko'pchiligi quruqlikda yashaydi; kanalar va o'rgimchaklar orasida ikkilamchi marta suvda yashashga o'tgan turlari bor. Ko'pchiligi yirtqich, har xil umurtqasizlar bilan oziqlanadi. Bir qancha turlari parazit (kanalar) va o'simlikxo'r (o'rgimchakkana. O'zbekiston hududida kanalar, chayonlar, solpugalar va o'rgimchaklarning bir necha yuz turi tarqalgan.

O'rgimchaksimonlarning xilma-xilligi

O'rgimchaksimonlar sinfi tuzilishi va hayot kechirishi bilan bir-biridan farq qiladigan o'rgimchaklar, solpugalar, chayonlar va kanalar turkumlariga bo'linadi. O'rgimchaklar–Aranei turkumi xilma-xil, keng tarqalgan hayvonlar. Ko'pchiligi bir yil umr ko'radi; tuxum qo'yib, qishda halok bo'ladi. Tuxumlari yoki yosh o'rgimchaklar qishlab qoladi. Tropik mintaqalarda tarqalgan qushxo'r o'rgimchak 7-8 yildan 20 yilgacha umr ko'radi. O'rgimchaklar ko'pchilik turlarining zahari odam va issiq qonli hayvonlarga ta'sir etmaydi. Butli o'rgimchak bu sinfning tipik vakili hisoblandi.

Qoraqurt (*Latrodectus tredecimguttatus*) Shimoliy Kavkaz, O'rta Osiyo, Eron, Qrim cho'l va dashtida keng tarqalgan. Urg'ochisi 10-20 mm, erkagi 4-7 mm.

Yosh urg'ochisi qornining orqa qismida qizil dog'lari bor. Toshlar ostiga, yoki tuproq yuzasidagi chuqurchaga to'r to'qib, unga tushgan hasharotlar bilan oziqlanadi. Urg'ochisi to'rdan to'qilgan 5-10 ta oq-sarg'ish pillaga tuxum qo'yadi. Bahorda tuxumlardan chiqqan qoraqurtchalar 2,5-3 oyda voyaga yetadi. Qoraqurt ot va tuyalar labini chaqib, ularni nobud qilishi mumkin. Uning zahari odamga ham kuchli ta'sir etadi. Toshkent shahridagi Emlash va zardoblar tayyorlash institutida qoraqurt zahariga qarshi zardob ishlab chiqariladi.

Biy (*Lycosa singorensis*) to'r to'qimaydi. O'ljasini ta'qib qiladi yoki pistirmadan unga hujum qiladi. Biy pana joylarda tuproq ustida vaqtinchalik in quradi. Inining ustini yupqa o'rgimchak to'ri bilan o'rab qo'yadi. Biy – zaharli o'rgimchak, lekin odam uchun uncha xavfli emas.

Falangalar - Solifugae turkumi. Falangalar issiq mintaqalarda, jumladan O'rta Osiyo, Qrim, Kavkazda keng tarqalgan. Gavdasi ancha yirik (5-7 sm gacha); boshko'krak bilan qorin qismi o'rtasida ikkita erkin bo'g'imi bor. Qorni 10 bo'g'imdan iborat. Gavdasi qo'ng'ir-sarg'ish tusda, sirdan uzun tuklar bilan qoplangan. Ular yirtqich, asosan hasharotlar, ba'zan mayda kaltakesaklar bilan oziqlanadi. Ularning zahar bezi bo'lmaydi. Lekin xitin tishchalarga ega bo'lgan xelitseralarida qolib ketgan oziq zaharga aylanishi mumkin. Falanga terini jarohatlaganida zahar qonga o'tib, organizmni zaharlaydi.

Chayonlar – Scorpiones turkumi. Chayonning tanasi 10 sm uzunliqla bo'lib, rangi kulrang-sarg'ish Ustyurt cho'llarida va Orol dengizi atrofida qora chayon ham uchraydi. Bo'g'imli oyo'qlardan iborat gavdasi yaxlit bosh ko'krak va qoringa bo'linadi. Qorni ancha keng oldingi va ingichkaroq keyingi qorin qismlariga ajraladi. Keyingi qorinning oxirgi bo'g'imida zahar ishlab chiqaradigan bir juft zahar bezlari va nashtari joylashgan.

Chayonlar hasharotlar va o'rgimchaklarni tutib yeydi. Kechalari ovga chiqadi; kunduzi esa toshlar ostida, devorlar kovagida yashirib yotadi. O'ljasini ushlab uchun oyo'q paypaslagichlarining uchidagi qisqichlaridan foydalanadi.

Qisqichlari yordamida tutgan o'ljasini tepaga ko'taradi va unga nashtarini sinchib zahar yuboradi. So'ngra o'ldirilgan o'ljasining tanasini so'rib oziqlanadi. Chayonlar o'z nashtaridan faqat o'zini himoya qilish va oziqlanish uchun foydalanadi. Urg'ochi chayonlar tirik tug'adi. Tug'ilgan bo'lalarini juda avaylab yelkasida olib yuradi. Keyinchalik ular o'sib, ulg'aygandan so'ng onasining yelkasini tark etadi.

Chayonlar zahari odamga kuchli ta'sir qilib, nerv sistemasining faoliyatini buzadi; nafas olish og'irlashadi, ko'ngil aynishi, qayt qilish va tanadan sovuq ter chiqishi kabi hodisalar kuzatiladi.


Kanalar – Acari turkumi. Kanalar asosan quruqliqla yashaydi. Ular orasida odam va hayvonlar tanasida parazitlik qilib hayot kechiradigan turlari ham ko'p bo'ladi. Kanalarning tanasi yaxlit bo'lib, bo'g'imlarga bo'linmagan. Yurish oyo'qlari 4 juft, og'iz organlari sanchib-so'rishga moslashgan. Kanalar to'liq o'zgarish bilan rivojlanadi. Ularning lichinkasida 3 juft oyo'qlari bo'ladi; bir marta po'st tashlangandan keyin oraliq bosqich-nimfaga aylanadi. Nimfaning oyo'qlari 4 juft, u tullagach voyaga yetgan kanaga aylanadi.

Qon so'ruvchi kanalar. Odamlar va turli hayvonlarda yaylov kanasi, mol kanasi va qo'tir kanalar parazitlik qiladi. Yaylov kanasi nisbatan yirikroq; qon so'rishdan oldin 2-3 mm, qon so'rganidan keyin esa bir necha santimetrga yetadi.

Og'iz organlari yordamida kanalar xo'jayin terisini teshib, tanasiga mahkam yopishib oladi. Kanalar qoramollarga kana terlamasi, entsefalit va pirop plazmoz kasalliklarini tarqatadi. Kasallangan mollarning siydigi qizil rangda, juda ozg'in bo'ladi. Kanalardan saqlash uchun mollarning o'tlash joylarini tez-tez almashtirib turiladi. Agar mollar tanasida kanalar juda ko'p bo'lsa, ularni margumush eritmasida cho'miltirish kerak.

Entsefalitni yovvoyi hayvonlardan odamga kanalar yuqtriishini parazitolog E. N. Pavlovskiy va mikrobiolog olim L.A.Zilber 1930 yilda aniqlashgan. Kanalar va boshqa bo'g'imoyo'qlilar orqali tarqaladigan bunday kasalliklar transmissiv kasalliklar deyiladi. E.N.Pavlovskiy transmissiv kasalliklarning tabiiy manba'lari to'g'risidagi ta'limotga asos solgan olim. Entsefalit kasalligini yuqtirmaslik uchun kasallik tarqalgan joyga boradigan odamlar emlanadi. Kanalar uchraydigan joylarda ishlaydigan odamlarga esa tanani yaxshi yopib turadigan ust-bosh kiyim beriladi.

Qo'tir kanalar – hayvonlar va odamlarda qo'tir kasalligini qo'zg'atadi. Ular mayda (0,2-0,5 mm uzunliqla) bo'lib, urg'ochilari terini yemirib oziqlanadi va teri ostida 10-15 mm uzunliqla o'ziga yo'l ochadi. Bunday yo'llar terining yupqa joylari: barmoqlar orasi, bilak va tirsak o'rtasi, qo'ltiq ostida bo'ladi. Urg'ochi kana shu joylarga tuxum qo'yadi. Tuxumdan chiqqan yosh kanalar teri ustiga chiqib, o'ziga yangi yo'l ochadi. Kana yuqqan joyning terisi qitliq qichib, qashlayverish natijasida qo'tir bo'lib qoladi. Qo'tir kanalari it, qo'y, echki, ot,



cho‘chqalardan odamga yuqishi mumkin. Kana sog‘lom odamga zararlangan odamning qo‘llari orqali ham yuqadi. Kana yuqishi oldini olish uchun qo‘lni toza saqlash, shaxsiy gigiena choralariga rioya qilish zarur. Qo‘tir kanalarga qarshi kurashda terining qo‘tir bo‘lgan joyiga turli malham dorilar suriladi.

O‘rgimchakkana. O‘zbekistonda g‘o‘za, bodring va boshqa ekinlarga o‘rgimchakkana katta ziyon yetkazadi. O‘rgimchakkana ekinlar bargining orqa tomonida to‘da bo‘lib yashab, uning shirasini so‘rib oziqlanadi. Natijada barglar quriy boshlaydi. Zararlangan g‘o‘za barglar uzoqdan qizarib ko‘rinadi. O‘rgimchakkananing urg‘ochisi 2-3 hafta barglarga 100 dan ortiq tuxum qo‘yadi, undan chiqqan lichinkalar ham 2-3 hafta davomida voyaga yetadi. Bir mavsum davomida kanalarning bir necha avlodi rivojlanadi. Urug‘langan urg‘ochilari tuproqqa tushib, o‘simliklar qoldig‘i orasida to‘dalashib qishlaydi. O‘rgimchakkana respublikamizda g‘o‘za hosilini 30-50 % ga kamaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Umurtqasizlar zoologiyasi – O.Mavlonov, Sh.Xurramov, X.Eshova (2006) 53-54-56-57-63-67-betlar. shu
- 2.Zoologiya – Dj.Urchinov (1996) 12-bet.
- 3.Zoologiya – Ochil Mavlonov (2010) 38-bet.
- 4.Zoologiya – S.Dadayev, O.Mavlonov (2008) 14-bet.
- 5.Parazitologiya – S.Dadayev (2006) 28-bet.